

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA "HALOLLIK" KONSEPTINING IFODALANISHI

Bovmanova Bashorat To'ychi qizi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maqollarning tilning voqelanishidagi o'rni, ularda ifodalangan halollik va uning maydonini tashkil etuvchi tushunchalarning nutda ifodlanishi, ularda o'zbek xalqining turmush tarzini qay darajada qamrab olganligi, o'zbek xalqiga xos donolik, zakiylik, or-nomus, to'g'rilik, maqollarga ko'chib o'tgan obrazlarning ifodlanishi va boshqalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: halollik, harom, to'g'rilik, qadriyat, milliy ong, mentalitet, verballashuv, paremiologiya, xalq og'zaki ijodi, obraz, g'oyaviy qarashlar, ma'rifiy qurol

Milliy dunyo tasvirini verballashuvida paremiologik birliklar, xususan, maqollar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki maqollar milliy xarakterning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Ularda timsollar tizimi o'ziga xosligi, tarixiy shakllangan, ma'lum tilda so'zlashuvchi jamoaning o'rab turgan voqelikni anglashdagi ko'p asrlik muloqoti, tajribasi jam bulgan bo'ladi. Insonning kundalik hayoti, ijtimoiy yunalganligi, maqol va iboralarning ma'no mazmunida aks etadi. Shuning uchun bo'lsa kerak Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham maqollarning hayotimizdagи muhim ahamiyatiga to'xtalib "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida shunday deydi: "Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni bahramand etsak, ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatda insoniy fazilatlarni kamol toptirishda kudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz"¹.

Insonlar maqollarda o'zining hayotga, tabiatga, oila va jamiyatga munosabati, hayotiy tajribalari va maishiy turmush xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlarini, boshqacha qilib aytganda, o'zi va o'zligini namoyon etadi. Maqollar xalqning hayotiy muammolari, mehnat va mashaqqati, muvaffaqiyati va mag'lubiyatlarini o'zida aks ettiradi. Maqollar insonning hayot tarzi, uning qulayliklari, tarixi, geografiyasi va bir madaniyatga jamlangan an'analarini va har bir xalqning o'z milliy dunyo tasvirini yorqin namoyon etishga xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak har bir xalqning madaniyatini, yashash tarzini, ma'naviy dunyosining kengligini tilidagi maqollaridan bemalol anglab olish mumkin.

O'zbek tilidagi mavjud maqollar o'zida ifodalovchi g'oyasi jihatidan mavzulashtirilgan ko'rinishda kitob holiga keltirilgan. Biz tadqiq etmoqchi bo'lganimiz halollik haqidagi maqollar ham ana shu kitobdan o'rin olgan "Halollik va tekinxo'rlik" bo'limiga tegishli. Ushbu qismda halollik haqidagi quyidagi maqollar o'z aksini topgan:

Ko'ngil tortgan osh –halol

Manglay tering bilan topilgan mol taningga halol.

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.

Eshakning go'shti –harom, mehnati –halol.

Halol ish –lazzatli yemish.

Halol ishla, halol tishla.

Halol mehnat yerda qolmas.

Halol mehnat –mo'l daromad.

Halol molning qulfi o'zida bo'lar.

Halol pishib chiqar, harom teshib chiqar.

Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko'rasan.

Haromdan ming tanga, haloldan bir tanga

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, ikkinchi nashri 2013. 33 b.

Ko'ngil tortgan osh –halol². Bizning islom dinimizda “ko’ngil” (qalb,dil variantlarda ham ishlatish mumkin) va uning pokligi,sofligi insoniylikning asosi sifatida qaraladi. Sof qalb egasigina yaxshilik qilishga, hamma narsani yaxshilikka yo'yishga, atrofdagilarni ham shu qonuniyat doirasida yashashga undashga qodir deya baholanadi va bu ayni haqiqat ham aslida. Shuning uchun ham o'zbek millatining ongida ko'ngil buyurgan ishni qilish(to‘g‘ri bo‘lsagina) “yaxshilik” va aksincha, ko'ngil tortmagan ishni qilmaslik esa “hikmat ” deya e'tirof etish tamoyili mavjud. Yuqoridagi maqolda ham aynan shu g‘oya ilgari surilmoqda. Bilamizki, maqollarning o‘ziga xos janr xususiyatlari mavjud bo‘lib ular quyidagilarni tashkil qiladi:

Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan;

Makollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma'noni ifodalaydi;

Xalq maqollari shaklan she'riy va nasriy buladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi; Maqollarda hayotiy voqeа-hodisa haqida qat'iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi;

Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtayi nazardan umumlashtiradi;

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’noda qo’llanishi mumkin. Ushbu maqolning tahlilida bevosita maqolning “Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma'noni ifodalaydi” degan xususiyatidan foydalanmoqchimiz, ya’niki, bu maqoldagi “osh” so‘zi “taom” ma’nosinigina ifodalamay, balki umuman inson ko‘ngliga, uning tafakkur dunyosiga, yashash tarziga,diniga, madaniyatiga,millatiga,urf-odatlariga to‘g‘ri keladigan “yumush” lar yig‘indisini ifodalamoqda. Birgina shu maqol orqali o'zbek xalqining kam so‘z qo'llab, ko‘p ma’no ifodalay mahorati naqadar yuksak ekanligini bilimishimiz mumkin va bu kabi maqollarni bizning lug‘at boyligimizda ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Manglay tering bilan topilgan mol,

Taningga halol³. Keyingi maqolimiz ham aynan halollik haqida bo‘lib, u “halollik ” tushunchasini boshqa bir tomonidan ifodalashga xizmat qilmoqda. Ma'lumki, xalqimiz orasida halol mehnat qilib, bola-chaqasiga ham halol luqma yedirib voyaga yetkazish oliv qadriyat sifatida qaralgan, shuningdek “halol luqma” bilan kun kechirish insonning ichki olamining ham poklanishiga zamin yaratadi deb hisoblanadi. Halollik bilan maishiy hayotni o‘tkazish muqaddas kitoblarimizda ham,hadislarimizda ham bot-bot uqtiriladi. Xususan،
مَا اللَّهُ عَلَىٰ تَقْوِيلَهُ وَأَنَّ وَالْفَحْشَاءِ بِالسُّوءِ يَأْمُرُكُمْ إِنَّمَا مُبِينٌ عَدُوٌّ لَكُمْ إِنَّهُ الشَّيْطَانُ حُطُواٰتٍ تَتَبَعُواٰ وَلَا طَيِّباً حَلَّاً الْأَرْضَ فِي مَمَّا كُلُواٰ النَّاسُ أَيُّهَا تَعْلَمُونَ لَا

Ma’nosи: “Ey, odamlar, yerdagi halol-pok narsalardan tanovul qilingiz va shaytonning izlaridan ergashmangiz! Albatta, u sizlarga aniq dushmandir. U sizlarni faqatgina yomonlik va buzuqlikka va Allah sha’niga o‘zingiz bilmagan narsalarни gapirishingizga buyuradi”⁴. Bu oyatda Allah taolo hazrati odamga dastavval chaqiriq qilib, ularni yer yuzida yashashga imkon bergenini bildirdi. Bu bilan inson uchun hayotini halol-pok muhitda o‘tkazishga buyurib, shu asnoda ularga o‘z luqmalarini pokiza holda iste’mol qilishga buyurgan. Bu oyatning davomida kimki, halollik asosida yashamas ekan, albatta, u shubha va haromning jar yoqasiga borishi aniq ekanligini ham uqtirib o’tmoqda. Natijada shaytonning qadam soyasiga ergashib qolishi mumkin. Chunki, u insonni faqat yomonlik, harom-harij muhitga solib qo‘yadi.

Og‘izdan kirayotgan har bir luqma halol bo‘lishi, inson tanasining pokligini, miyaning esa yaxshi ishlashini ta’minlaydi. Bu hayotiy jarayon tibbiyat nuqtayi nazaridan ham isbotlangan. Demak, yuqoridagi maqoldan shunday g‘oya anglashiladiki, halol mehnat qilib, peshona teri bilan topilgan har qanday mol(pul, ozuqa, yemak va boshqalar nazarda tutilmoqda) inson tanasiga halol luqma bo‘lib kiradi va insonga yaxshilik yuqishiga zamin hozirlaydi.

*Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich*⁴. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi natijasida maydonga kelishini yaxshi bilamiz. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi. Maqollar haqida so‘z yuritar ekanmiz,shu o‘rinda rus yozuvchisi L.N. Tolstoyning “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siyosini ko‘raman” – degan haqqoniy fikrlarini yodga olish o‘rinlidir . Darhaqiqat, dunyoda maqollar va hikmatlar durdonasini yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, sayqal berib, tili va dilida saqlab kelmagan biron bir xalq yo‘q. Maqollar xalqlarning o‘zligini, mentalitetini, milliy xarakterini, urf-odatlarini, qadriyatlarini ifodalovchi vosita hisoblanishini yaxshi bilamiz. Navbatdagi tahlilga

² O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent, Sharq, 2016. 52-b

³ O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent, Sharq, 2016. 52-b

⁴ O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent, Sharq, 2016. 52-b

tortmoqchi bo‘lgan maqolimiz ham yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol va jonli isbotidir. Bu maqolni xalqimiz nutqida ko‘p bora eshitganmiz va o‘zimiz ham vaziyatni baholash uchun mana shu paremiologik birlikdan ustalik bilan foydalanganmiz. Bu maqolni biz ko‘chma ma’noli maqollar toifasiga kirta olamiz, chunki ushbu barqaror birikmaning tag zamirida hayotda, ishda, oilada, kishilar bilan bo‘layotgan muloqot jarayonida, umuman turmush-tarzimizda to‘g‘rilikni dastur ul-amal qilganimiz yotadi. Har bir jarayonda hayotimizga to‘g‘rilikni singdira olsak, bizning botiniy va zohiriy olamimizda “qo‘rquv” hissi paydo bo‘lmaydi,nimadandir hadiksirash holati yuzaga kelmaydi. Shu ma’noda bu maqolni ko‘p marotaba nutqimizda qo‘llaymiz va aynan qanday vaziyatlarda voqelantirishimizni sanab o‘tamiz:

Er-xotinlik munosabatlarida;

Ish jarayonida;

Savdo-sotiqlarida;

*Eshakning go‘shti –harom, mehnati –halol*⁵. Turmushning hamma sohasida: mehnat jarayonida, jonli suhbatda, yozma adabiyotimizda maqol va hikmatli iboralar juda ko‘p ishlataladi. E’tiborlisi shundaki, deyarli barcha xalning maqollar fondiga nazar tashlasak, hayotiy jarayonlarni dalillash uchun hayvon obrazlaridan foydalanilganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa millatlar orasidagi mushtarak qadriyatlarning umuminsoniy ko‘rinishidan darak beradi. Chunki xalqimiz ma’naviyatida saqlanib qolgan va hanuzgacha bardavom bo‘lib kelayotgan shunday an’analaramiz borki, ularni sanab o‘tmaslik mumkin emas. Ana shu o‘lmas qadriyatlarimizdan biri bu “insonlarning ko‘ziga tik qarab gapirmaslik” (hattoki u haq bo‘lsa ham). Zakiy otabobolarimizning mahoratini qarangki, atrofdagilarga,o‘zidan kichiklarga, xatoga yo‘l qo‘ygan osiylargacha, yosh-avlodga –umuman didaktik tarbiyaga muhtoj bo‘lgan har qanday jamiyat a’zosiga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishda “Sen” murojaat birligini ishlatishmagan, balki qahramonlari hayvonlar, qushlar bo‘lgan turli pand-nasihat yo‘g‘rilgan, nutqimizni ta’sirchan va shirali qilib turuvchi, ayni paytda achchiq haqiqatni o‘zida mujassam etuvchi til boyliklaridan oqilona foydalanishgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak maqollar fondimizning ko‘p qismini hayvonlar va qushlar obrazidagi maqollar egallaydi. Yuqoridagi maqolni ham mana shu fikrimizning isboti sifatida baholash mumkin. Turmush jarayonida xohlaymizmi- yo‘qmi moddiyat dastlabki o‘rnarda bo‘ladi va bu holat ham maqollarimizda o‘z aksini topmay qolmagan. Xususan, “Eshakning go‘shti harom, mehnati –halol“ maqolida ham “go‘sht” orqali moddiylik inson hayotining ajralmas qismi ekanligi izohlanmoqda. Nutq jarayonida esa bu maqol “biror vazifani ado etgach, uning qilgan ishlariga baho beriladi-yu, ammo uning tuyg‘ulari, o‘y-xayollari, sezimlari bilan hisoblashilmagan” holatda uchinchi odam yoki shu holatning asosiy obyekti hisoblangan shaxsning nutqida ishlatilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Rahimov M.O. Ingliz va o‘zbek maqollarida milliy dunyo tasvirining aks etishi. –Toshkent: 2015. Magistrlik dissertatsiyasi
3. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent, Sharq, 2016. 55-b

⁵ O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent, Sharq, 2016. 55-b